



**OBJEKTAR XAVFISIZLIGINI TA'MINLASHDA ZAMONAVIY
“TEXNIK QO'RIQLASH VOSITALARIDAN” FOYDALANISH
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

Jamoat xavfsizligi universiteti magistranti

Usmonov Suxrob Mexriddin o'g'li

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Milliy gvardiya qo'riqlash bo'linmalari tomonidan qo'riqlanayotgan obyektlar va xonadonlar xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnik qo'riqlash vositalarini qo'llashning istiqbollari hamda mazkur soxada xorij davlatlarida qo'llanilish tajribalari haqida ayrim mulohazalar keltirib o'tilgan.*

Abstract: *In this article, some comments are made about the prospects of using modern technical security tools to ensure the security of objects and houses guarded by the National Guard security units, as well as the experiences of use in foreign countries in this field.*

Аннотация: *В данной статье приводятся некоторые комментарии о перспективах использования современных технических средств охраны для обеспечения безопасности объектов и домов, охраняемых охранными подразделениями Национальной гвардии, а также об опыте применения в зарубежных странах в этой области.*

Kalit so'zlar: *obyekt, aniqlash zonasi, texnik qo'riqlash vositalari, xavfsiz shahar, Pritok-A, xavfsizlik.*

Key words: *object, detection zone, technical protection means, safe city, Pritok-A, security.*

Ключевые слова: *объект, зона обнаружения, технические средства защиты, безопасный город, Приток-А, охрана.*



Globalashuv tendensiyasida Yangi O‘zbekiston ham shiddat bilan rivojlanmoqda. Davlatning jadal suratlarda rivojlanishi, undagi tinchlik osoyishtalik va xavfsizlik ta‘minlanishi uchun qator davlat dasturlari va strategiyalar joriy qilinmoqda. Hech kimga sir emaski dunyodagi global muammo sanalgan eksteremizm barcha davlatlar qatori yurtimizga ham doimiy tahdid solish xavfi mavjud. Hozirgi vaqtda har xil turdagi terroristik va ekstremistik tashkilotlarning faollashganligi tufayli muhim va o‘ta muhim obyektlarni, fuqarolar mulki va hayotini himoyalash muhim vazifa hisoblanadi. Bu turdagi vazifalarni muvaffaqiyatli ado etish va sifatli hamda tezkorlik bilan bajarish davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Mamlakatimizda o‘tgan davr mobaynida davlat, o‘ta muhim, toifalangan va boshqa obyektlarni, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini ishonchli qo‘riqlashni ta‘minlovchi sifat jihatidan yangi tizimni joriy etish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Biroq, qo‘riqlash faoliyatini tashkil etishda hozirga qadar bir qator muammolar mavjud bo‘lib, bular Milliy gvardiya Qo‘riqlash bo‘linmalarining mulkni qo‘riqlash bo‘yicha xizmatlari qamrovining torligi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish darajasining pastligi, mavjud qo‘riqlash tizimi va texnologiyalarining yetarlicha samarali emasligi, ushbu sohada sifatli servis xizmatini ko‘rsatishning yagona texnik talablari va mexanizmlarining yo‘qligida namoyon bo‘lmoqda[1]. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 12.12.2018 yildagi PQ-4060-son)

Xavfsizlikni taminlash masalasi murakkab va o‘ziga xos masalalardan bo‘lib, bir vaqtning o‘zida bir necha turdagi vazifalarni hal etishni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasida “Xavfsiz shahar” konsepsiyasi asosida mamlakatimizdagi obyektlar va aholi turar joylarida obektlar xavfsizligini ta‘minlash maqsadida Milliy gvardiya qo‘riqlash xizmati va bir qator vazirlik va idoralar hamda kuch tuzilmalari uzluksiz xizmat olib borishmoqda. Texnik qo‘riqlash vositalaridan keng va samarali



foydalanish orqali shu turdagi naryadlar sonini va ularning ish yuklamasini kamaytirgan holda ularning javobgarlik hududlarini kengaytirish va doimiy shay holatda bo'lishini ta'minlash umuman olib aytganda xizmat faoliyatini samaradorligini oshirish mumkin. Bugungi kunda dunyoda qoidabuzarliklarning turli usullari keng miqyosda rivojlanib bormoqda. Ularning oldini olish va bartaraf etishda zamonaviy tizimlardan foydalanish yo'lga qo'yilmoqda.

Obyektlarni himoya qilish masalasi, muhandislik qo'riqlash va texnik signalizatsiya vositalaridan foydalanishga asoslangan bo'lib, yaqinlashayotgan har xil tajovujlarni birinchi harakatidayoq aniqlaydi. Obyektlardagi signalizatsiya tizimini samarasini oshirish tezkor kriminogen holatlarda sharoitlarda o'zgarishini xavfsizlik tizimini integral majmuasini tadbqiq qilmasdan, ishlab chiqish mumkin emas. Katta hajmdagi obyektlar xavfsizligini ta'minlash juda qiyin hisoblanadi. Ushbu masalani hal qilish hamkorlikdagi faktorlar birlashtirish bilan amalga oshiriladi. Xodimlar (qo'riqlash xizmati) sarhadlarni birdaniga nazorat qila olmaydi shu sababli, texnik qo'riqlash vositalari soni ko'paytirish va xodimlar shtatini kengaytirish talab qilinadi. Integrallashgan xavsizlik tizimidan foydalanish va ularni qo'llash o'zining ijobiy natijasini beradi.

Hozirgi davrga kelib ko'plab rivojlangan davlatlarda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida hududlar sektorlarga bo'lingan holda ularning xavfsizligini ta'minlash kompleks tizimlari yaratilgan. Davlat va xususiy qo'riqlash sektorlari tomonidan obyektlar va xonadonlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha zamonaviy texnik qo'riqlash vositalari va tizimlaridan keng foydalanilmoqda.

Rossiya Federatsiyasida faoliyat yuritayotgan "АРМО-ЛАЙН" kompaniyasi tomonidan obyektlar va xonadonlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha turli muhandislik-texnik tizimlarini loyihalash, o'rnatish, ishga tushirish va integratsiya qilish, jumladan, xavfsizlik tizimlari uchun dispatcherlik va avtomatlashtirilgan tizim va texnik qo'riqlash vositalarini ishlab chiqarish bo'yicha 170 dan ortiq loyhalar amalga oshirilgan.



Bugungi kunda mazkur kompaniya tomonidan “Aqlli uy” tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, mazkur tizim yordamida fuqarolar tomonidan kvartirani yoki uyni xavfsiz qilish imkonini beradi, ya’ni signalizatsiya, chiroq va sirenni masofan turib yoqish, shuningdek, uy egasining smartfonidagi xabar bilan noqonuniy kirish haqida ogohlantirish. Shuningdek, uy egasining ta’tilda yoki ish safarida bo‘lganda mol-mulkini xavf-xatarlardan himoya qilishi mumkin: maxsus sensorlar suv toshqini, gaz sizib chiqishi, tutun va boshqa xavfli vaziyatlar haqida xabar beradi, hamda avtomatik tarzda o‘chiradi. Bundan tashqari, aksariyat hollarda video kuzatuv va shaxsiy xavfsizlik konsoliga ulanish ta’minlanadi.

So‘nggi bir necha yil ichida sun’iy intellekt ko‘proq shaxsiylashtirilgan tajribalarni yaratish uchun ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish orqali hayotning deyarli barcha sohalarida mijozlar tajribasini doimiy ravishda yaxshilaydi. SI texnologiyasi tomonidan o‘zgartiriladigan so‘nggi sohalardan biri bu uy xavfsizligi. Hozirda ko‘plab iste’molchilar o‘zlarining turmush tarzi ehtiyojlariga mos keladigan aqlliyoq va moslashuvchan variantlar bilan uy xavfsizligini shaxsiylashtirish uchun asosli sabablarga ko‘ra sun’iy intellekt asosida ishlaydigan xavfsizlik tizimlariga murojaat qilmoqdalar.

Xitoyning “YANJEN” kompaniyasi tomonidan obyektlar va xonadonlar xavfsizligi ta’minlash bo‘yicha sun’iy intellektdan keng foydalanmoqda. Xususan, sun’iy intellekt kameralari uy egalariga uy atrofida sodir bo‘layotgan voqealar haqida ko‘proq ma’lumot beradi va muammolarni standart tizimlarga qaraganda tezroq va samaraliroq hal qiladi. Natijada, bu ilg‘or kameralar mijozlarga o‘z uylarida dam olishlari va to‘liq zavq olishlari uchun mahsuldorlikni, samaradorlikni oshirish va, ehtimol, eng muhimi, ko‘proq xotirjamlikni ta’minlaydi.

Xavfsizlik kameralarida sun’iy intellekt turli hodisalar va potentsial tahdidlarni aniq va samarali aniqlashi va qayd etishi mumkin, bu esa standart xavfsizlik kameralariga qaraganda tajovuzkorlarni, shuningdek, uy egalarining xavfsizlik tizimlaridagi mumkin bo‘lgan bo‘shliqlar yoki buzilishlarni aniqlashga



yordam beradi. Misol uchun, uy egasi avtomobil yo‘lakka chiqqanda yoki eshik oldida odam paydo bo‘lganda ogohlantirish olishni xohlashi mumkin, lekin hovlidan biror bir hayvon yugurganda, qushlar uchganda yoki mashina o‘tib ketganda ogohlantirish olishni xohlamaydi. Sun‘iy intellekt bu ikki hodisani farqlay oladi va shuning uchun uy egasi ahamiyat bermasligi mumkin bo‘lgan voqealar uchun keraksiz va potentsial bezovta qiluvchi bildirishnomalarni minimallashtiradi.

Shu turdagi tajribalarni qo‘llagan holda bizning yurtimizda ham zamonaviy qo‘riqlashning texnik vositalaridan foydalanish, shuningdek obyektlar va xonadonlar xavfsizligini ta‘minlashda sun‘iy intellektlardan foydalanish, UUAlardan foydalangan holda sektorlardan kelib tushgan tashvish signallarini naryadlar hududga yetib kelgunlariga qadar yuqoridan kuzatish ishlarini amalga oshirib, olingan tasvirlarni onlayn tarzda qo‘riqlash xizmati naryadlariga uzatish kompleksini yaratish xizmat faoliyatini yanada natijakor qiladi, qolaversa kuzatuvda ekanligini bilgan qonunbuzar shaxs sarosimaga tushadi. Bu tajribani faqat obektlarida emas balki ommaviy tadbirlar hamda bayramlarda aholi xavfsizligini ta‘minlash hamda jamoat tartibini saqlash maqsadida dronlar kuzatuvidan foydalanish orqali, hamda zaxira guruhlarini tashkil etgan holda operatorlarining doimiy kuzatuvi bilan ushbu vazifani bajarish bilan ham erishish mumkin. Vaziyat keskinlashish holatlarida zaxira guruhi tezkor harakatlari bilan yuzaga keladigan xavf bartaraf etiladi.

XULOSA

Bugungi kunda obyekt xonadonlar xavfsizligini ta‘minlashda zamonaviy qo‘riqlash texnik vositalarining o‘rni juda muhim. Butun xavfsizlik tizimining samaradorligi to‘g‘ri tanlangan xavfsizlik tizimi, vositalari turiga bog‘liq. Zamonaviy qo‘riqlash texnik vositalari va tizimlarini tanlash va o‘rnatishda turli xil parametrlarni, masalan, zonani hisobga olish kerak perimetr yoki xonaning muayyan maydoniga qarab sensori aniqlash va ko‘rish burchagi, tashqi datchiklar uchun ish harorati oralig‘i va yong‘inga qarshi himoya mavjudligi muhim ahamiyatga ega.



Eng so‘nggi texnik qo‘riqlash vositalaridan foydalanish qo‘riqlanayotgan obyektlarda, xonadonlarda turli xil salbiy hodisalarning oldini olishga bevosita ta’sir qiladi, obyekt yoki xonadoningizga noqonuniy (ruxsatsiz) kirishga uringan shaxslar ustidan nazoratni kuchaytirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risidagi 2022-yil 15-iyundagi, 778- son qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 18 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-647-son Qonuni.
3. Integrallashgan qo‘riqlash tizimlarining dasturiy ta’minoti uslubiy qo‘llanma Achilov F.B, Ochilov I.N O‘zR JXU.
4. Djabbarov T.M. Texnik qo‘riqlash vositalari (birinchi kitob)/ Djabbarov T.M. - T: O‘R QKA.
5. U.A.Yoqubov, A.N. Dadaboyev. Obyektlar xavfsizligini tizimli ta’minlash konsepsiyasi.
6. Л.А. Полякова, В.Г. Прожерин, Я.И. Савченко «Средства инженернотехнического обеспечения охраны объектов»/учебное пособие/Санкт-петербург. 2014 г.
7. Djabbarov T.M. SECURITY SENSORS // Journal of Advanced Scientific Research (ISSN:0976-9595). – 2023. – Т. 3. - №.6
8. Pazilova Sh. A. Electronics and its Role in Modern Science // Open Herald Periodical of Methodical Research 2(3), pp 68-71 2024